

**TA'LIM TURIZMINING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI****Uzaqov Jamshid Norboyevich***Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**i.f.f.d., (PhD), dotsent*

ORCID: 0009-0002-6420-9076

jamshiduzokov0660@gmail.com**Xasanova Sofiya Komoliddinovna***Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**stajyor o'qituvchisi*sofiyakhasanova777@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizmning mustaqil turi sifatida shakllangan ta'lim turizmining mohiyati, uning Yevropa davlatlarida va O'zbekistonda tashkiliy-iqtisodiy ta'minlanish darajasi qiyosiy tahlil qilingan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan davlat siyosati choralari tahlil etilgan. Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida O'zbekistonda xorijlik talabalar sonining 2015–2025-yillardagi dinamikasi ko'rsatilgan. Tahlil natijasida ta'lim turizmini boshqa turizm yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim turizmi, yoshlar turizmi, ziyorat turizmi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, xalqaro akademik mobillik, O'zbekiston.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallasuvi va ta'lim tizimlarining xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi sharoitida turizmning yangi, istiqbolli turi — ta'lim turizmi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Insonlarning bilim olish maqsadida o'z mamlakati chegarasidan tashqariga chiqishi, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi yoki qisqa muddatli ta'lim dasturlarida ishtirok etishi nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi, balki qabul qiluvchi davlatning iqtisodiyotiga, madaniy almashinuviga va xalqaro obro'siga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropa mamlakatlarining ko'p yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim turizmini tizimli ravishda rivojlantirish — faqat ta'lim sohasining emas, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladigan strategik yo'nalishdir. O'zbekiston uchun ushbu mavzu yanada dolzarbroq ahamiyatga ega, chunki mamlakatimiz so'nggi o'n yillikda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli nafaqat ta'lim oluvchilarni chetga chiqaruvchi, balki ularni faol qabul qiluvchi davlatga aylanib bormoqda.

So‘nggi o‘n yillikda jahon turizm bozorining eng tezkor rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish alohida ahamiyatga ega, chunki mamlakat 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida nafaqat ta‘lim oluvchilarni chetga chiqaruvchi, balki ularni faol qabul qiluvchi davlatga aylanib bormoqda. Mavzuning dolzarbligi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, globallashuv sharoitida yoshlarning xalqaro akademik mobilligi istiqbolli iqtisodiy resursga aylanib bormoqda: 2017-yilda Yevropa Ittifoqi oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining 11,6 foizi qisman yoki to‘liq ravishda chet elda tahsil olgan⁸². Ikkinchidan, O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yillikda ta‘lim sohasidagi islohotlar natijasida mamlakat nafaqat ta‘lim oluvchilarni chetga chiqaruvchi, balki ularni qabul qiluvchi davlatga aylanib bormoqda. Uchinchidan, ta‘lim turizmi ziyorat va madaniy-bilish turizmi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning birgalikda rivojlanishi mintaqaviy turizm salohiyatini oshirishning muhim omilidir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan rus tadqiqotchisi Ye.A. Djandjugazova⁸³ tomonidan ta‘lim turizmining oliy maktab ta‘lim mahsulotini shakllantirishdagi roli jihatlarini “Туристское образование в контексте новых требований к формированию современного образовательного продукта высшей школы” nomli tadqiqotida o‘rganilgan, ukrainalik tadqiqotchi O. Yastremska⁸⁴ esa ta‘lim turizmining mehnat bozorini faollashtirishdagi iqtisodiy ahamiyati jihatlarini “Educational Tourism as a Basis for the Growth of Economic Activity of the Labor Market” nomli tadqiqotida tahlil qilgan. O‘rta Osiyo va o‘zbekistonlik olimlar orasida M.I. Ibragimova⁸⁵ “O‘zbekistonda ta‘lim turizmi xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari” nomli falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida “ta‘lim turizmi” tushunchasining mohiyati, uning iste‘molchilar bilan kommunikatsiya tizimidagi ijtimoiy javobgarlik jihatlarini hamda 2025-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uchun asosiy manba sifatida Yevropa kengashi va Yevropa ittifoqining yoshlar siyosatiga oid normativ hujjatlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlari xizmat qildi. Mazkur manbalarni chuqur va har tomonlama o‘rganish maqsadida tadqiqotda bir nechta qiyosiy-tahliliy, statistik tahlil, tizimlashtirish va tasniflash metodlari uyg‘unlikda qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, yoshlar va ta‘lim turizmini davlat tomonidan tartibga solishning barcha usullarini ikki katta guruhga —

⁸² https://education.ec.europa.eu/sites/default/files/document-library-docs/et-monitor-report-2019-poland_en.pdf

⁸³ <https://cyberleninka.ru/article/n/turistskoe-obrazovanie-v-kontekste-novyh-trebovaniy-k-formirovaniyu-sovremennogo-obrazovatel'nogo-produkta-vysshey-shkoly>

⁸⁴ <https://doaj.org/article/b3c3de1f7887411f97a37d4456ddb437>

⁸⁵ <https://oak.uz/pages/10953>

institutsional va tashkiliy metodlarga bo‘lish mumkin (1-jadval). Institutsional metodlar guruhiga normativ-prinsipial, normativ-regulyativ, normativ-tavsiyaviy metodlar, shuningdek huquqiy tartibga solishni yangilash va qayta ko‘rib chiqish metodi kiradi. Bu metodlar nadnatsional organlar tomonidan yagona fundamental tamoyillar tizimini ishlab chiqish, vakolat va mas’uliyatlarni aniq taqsimlash, ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan amaliy tavsiyalar berish hamda normativ bazani muntazam yangilab borishni nazarda tutadi. Tashkiliy metodlar guruhi esa tadqiqot markazlarini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash, ekspertlar hamda konsultativ kengashlarning faoliyatini ta’minlashni o‘z ichiga oladi — bular siyosiy qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qiladi.

1-jadval. Yoshlar va ta’lim turizmini davlat tomonidan tartibga solish metodlari⁸⁶.

Metodlar guruhi	Metod nomi	Metodning mohiyati
Institutsional	Normativ-prinsipial	Bir nechta davlatlarning umumiy idoralari yoshlar turizmi sohasida hamma uchun bir xil qoida va tushunchalarni o‘rnatadi, shunda har bir davlat o‘zicha emas, umumiy asosga ko‘ra ish yuritadi
	Normativ-regulyativ	nodavlat tuzilmalar va jamoat birlashmalarining huquq, majburiyat va mas’uliyatini batafsil shakllantirish
	Normativ-tavsiyaviy	O‘tkazilgan tadqiqotlar ma’lumotlari asosida va ekspertlar bilan har tomonlama muhokamalar natijasida tijorat va notijorat tashkilotlarining yoshlar turizmini rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatiga oid aniq amaliy tavsiyalarni qabul qilish
	Huquqiy tartibga solishni yangilash va qayta ko‘rib chiqish	Normativ hujjatlarning dolzarbligi va huquqiy tartibga solishning samaradorligi ustidan maxsus organlar tomonidan doimiy monitoring olib borish, amaldagi qonunchilikka o‘z vaqtida tuzatish yoki o‘zgartirishlar kiritish orqali huquqiy mexanizmni takomillashtirish

⁸⁶ Muallif tomonidan xorijiy tajriba asosida tizimlashtirilgan

Metodlar guruhi	Metod nomi	Metodning mohiyati
Tashkiliy	Tadqiqot markazlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash	ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa tadqiqotlarni o‘tkazish uchun maxsus tadqiqot markazlarini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash
	Ekspertlar kengashlari faoliyatini ta’minlash	turli soha bilimdonlaridan iborat maslahat guruhi tashkil etish


Yuqoridagi metodlar tizimi shuni ko‘rsatadiki, Yevropa davlatlarida yoshlar va ta’lim turizmini boshqarish ko‘p darajali (nadnatsional, milliy, nodavlat) va ilmiy asoslangan yondashuvga tayanadi. Xususan, Yevropa kengashi doirasida faoliyat yurituvchi Yoshlar ishlari departamenti ikkita qo‘mita (rahbarlik va dastur qo‘mitalari) va ikkita kengash (maslahat va ekspertlar kengashlari) orqali davlat, jamoat va shaxsiy manfaatlarni muvofiqlashtirib boradi. 1972-yilda tashkil etilgan Yevropa yoshlar jamg‘armasi (EYF) yiliga 200 tagacha tadbiri, jumladan yoshlar turizmi bilan bog‘liq loyihalarni, moliyalashtiradi; faqat 2019-yilning o‘zida 82 ta yoshlar tashkiloti umumiy 2,16 million yevro miqdorida grant olgan. Bundan tashqari, Yevropa yoshlar xostellari assotsiatsiyalari federatsiyasi (EUFED, 31 ta milliy assotsiatsiyani birlashtiradi) va Rotarianlik yoshlar almashinuvi (Rotary Youth Exchange, 100 dan ortiq davlatda faoliyat yuritadi) kabi nodavlat tuzilmalar yoshlar turizmining moliyaviy va infratuzilmaviy ta’minotida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ta’lim turizmini rivojlantirishning institutsional asoslari markazlashgan davlat boshqaruvi shaklida shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017 sonli farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4768-son qarori asosida Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilib, u yoshlar bilan bog‘liq sohalarda yagona davlat siyosati va dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish vazifasini bajarmoqda. Bu borada 2022-yildan boshlab har yili iyul oyida “Yoshlar turizmi oyligi”, 2023-yildan boshlab esa yiliga ikki marta “Yoshlar turizmi haftaligi” o‘tkazib borilishi yo‘lga qo‘yilgan, shuningdek mamlakat bo‘yicha “Yoshlar turizmi” qurultoyi tashkil etilmoqda⁸⁷.

⁸⁷<https://mintrans.uz/uz/news/ichki-turizm-hizmatlarini-diversifikaciya-qilishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida>

Xalqaro akademik mobillik yo‘nalishida O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining “Erasmus+” dasturiga qo‘shilgan bo‘lib, uning milliy ofisi mamlakatda faoliyat yuritadi; dastur doirasidagi aloqalar yil sayin kengayib bormoqda, buni 2025-yil iyun oyida Toshkentda dastur ishtirokchilari uchun o‘tkazilgan birinchi rasmiy qabulda 80 dan ortiq kishi — turli akademik mobillik dasturlari va loyihalar vakillari ishtirok etgani ham tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari ta’lim turizmining kirish oqimi bo‘yicha mamlakatda sezilarli ijobiy dinamikani ko‘rsatadi (1-rasm). 2015/2016 o‘quv yilida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida atigi 0,7 ming nafar xorijlik talaba tahsil olgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yiliga kelib bu ko‘rsatkich 12,5 ming nafarga, ya’ni taxminan 18 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2022/2023 o‘quv yilidan (5,0 ming nafar) 2023/2024 o‘quv yiliga (10,8 ming nafar) o‘tishda ko‘rsatkichning deyarli ikki barobar ortishi diqqatga sazovordir⁸⁸. 2025-yilning yanvar–avgust oylarida esa 14,2 ming nafar xorijiy fuqaro O‘zbekistonda ta’lim olishni boshlagan, bu o‘tgan yilga nisbatan 28,8 foizga yuqori natijadir.



1-rasm – O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar sonining dinamikasi, 2015–2025 yy. (ming nafar)⁸⁹.

Mamlakatlar kesimida xorijlik talabalarning asosiy qismini Hindiston (6 502 nafar), Turkmaniston (1 430 nafar), Pokiston (1 250 nafar) va Rossiya (732 nafar) fuqarolari tashkil

⁸⁸ <https://oz.inform.kz/news/uzbekistonda-10-yil-ichida-horizhlik-talabalar-soni-kariyb-18-barobarga-oshdi-50eb85/>

⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim turizmining chiqish oqimi bo‘yicha ham sezilarli ko‘rsatkichlarga ega: xorijiy manbalarga ko‘ra, chet elda tahsil olayotgan O‘zbekistonlik talabalar soni 110 ming nafardan oshib, bu borada mamlakat dunyoda beshinchi o‘rinni egallagan⁹⁰.

Olingan natijalarni tahlil qilish Yevropa va O‘zbekiston tajribasi o‘rtasida bir qator tizimli farqlarni aniqlashga imkon beradi. Birinchidan, Yevropada ta’lim turizmini rivojlantirishning moliyaviy ta’minoti asosan nodavlat va notijorat tuzilmalar (EYF, EUFED, Rotary) hisobiga amalga oshirilsa, O‘zbekistonda bu jarayon to‘liq davlat byudjeti va davlat dasturlari orqali moliyalashtirilmoqda. Bu holat, bir tomondan, tezkor va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, nodavlat sektorning ushbu sohadagi salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, 1-jadvalda keltirilgan institutsional metodlar xususan, normativ-tavsiyaviy metod va ekspertlar/konsultativ kengashlari faoliyati O‘zbekistonda hali tizimli shaklda joriy etilmagan. Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan tavsiyalar berish mexanizmi, shuningdek nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat doimiy konsultativ kengashlar shaklida institutsionallashtirish darajasi Yevropa tajribasiga nisbatan pastroqdir. Shu bois, tadqiqot markazlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning natijalarini amaliy siyosatga tatbiq etish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, statistik tahlil (1-rasm) O‘zbekistonning ta’lim turizmi bozorida nafaqat chiquvchi, balki kiruvchi oqim bo‘yicha ham faol ishtirokchiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. Bu tendensiya mamlakatning ziyorat va madaniy-bilish turizmi salohiyati bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin: xorijlik talabalar, ayniqsa mintaqaviy davlatlardan (Hindiston, Pokiston, Turkmaniston) keluvchilar, o‘qish davomida Qashqadaryo kabi viloyatlardagi ziyoratgohlarga tashrif buyurish ehtimoli yuqori bo‘lgan salohiyatli auditoriyani tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim va ziyorat turizmini birlashtiruvchi qo‘shma dasturlar (masalan, xorijlik talabalar uchun hafta oxiri ziyorat turlari, qisqa muddatli “ta’lim+ziyosat” dasturlari) ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

To‘rtinchidan, Yevropaning yoshlar uchun chegirma-imtiyoz tizimi (masalan, yoshlar xostellari assotsiatsiyasi kartasi orqali berilayotgan 10 foizdan ortiq chegirmalar) O‘zbekistonda hali keng tarqalmagan. Mazkur tajribani “Yoshlar turizmi oyligi/haftaligi” doirasida institutsionallashtirilgan chegirma dasturlari (masalan, “Yoshlar turizm kartasi”) shaklida moslashtirish mumkin.

⁹⁰ <https://zamin.uz/uzbekiston/149735-ozbekiston-oliygohlari-horijlik-talabalar-uchun-tobora-jozibador-bolmoqda-eng-kop-talabalar-qaysi-mamlakatdan.html>

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ta’lim turizmi Yevropa davlatlarida ko‘p darajali, institutsional jihatdan yaxshi tartibga solingan va asosan nodavlat tuzilmalar tomonidan moliyalashtiriladigan tizim sifatida shakllangan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu yo‘nalish markazlashgan davlat boshqaruvi orqali jadal sur‘atlarda, ammo hali to‘liq institutsionallashtirmagan holda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, 2015–2025-yillardagi statistik ko‘rsatkichlar (xorijlik talabalar sonining 18 barobar oshishi) O‘zbekistonda ta’lim turizmining yuqori o‘sish salohiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi.

Fikrimizcha O‘zbekistonda ta’lim turizmini, jumladan ziyorat turizmi bilan uyg‘unlikda, yanada rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- yoshlar ishlari agentligi faoliyatida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan normativ-tavsiyaviy metodni institutsionallashtirish, shu maqsadda doimiy konsultativ kengash tashkil etish;
- xorijlik talabalar uchun mintaqaviy ziyoratgohlarga (jumladan Qashqadaryo viloyati ziyorat obyektlariga) tashrif buyuruvchi qo‘shma “ta’lim+ziyosat” turli dasturlarini ishlab chiqish;
- yevropa tajribasidagi yoshlar uchun chegirma-imtiyoz tizimiga o‘xshash milliy “Yoshlar turizm kartasi” tizimini joriy etish;
- nodavlat va notijorat tashkilotlarning ta’lim turizmini moliyalashtirishdagi ishtirokini rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Джанджугазова Е.А. Туристское образование в контексте новых требований к формированию современного образовательного продукта высшей школы // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2012.
2. Шульгина О.В., Шульгина Д.П. Образовательный туризм в России: история и современность // Вестник Национальной академии туризма. – 2019. – №2(50). – С. 36–39.
3. Фролова Е.В., Кабанова Е.Э., Костина М. Специфика культурно-познавательного туризма в городах Российской Федерации // КиберЛенинка, 2017.
4. Aliyeva M.T., Izzatov B. To Increase The Role Of Tourism In Development Of Uzbekistan Economy // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). – 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4768-son qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar statistikasi, 2015–2025 yy.

8. European Commission. EU Youth Strategy 2019–2027.

9. Council of Europe. Youth Sector Strategy 2030.